

UO'K 687.13.016.5

QADIMGI MILLIY LIBOSLARNI ZAMONAVIY USLUBDA LOYIHALASHNING INNOVATSION YONDASHUVI

Matchonova Nargiz Nortayevna

t.f.f.d. dotsenti

Jizzax politexnika instituti

Email: nargis_83@inbox.ru

Maqolada birinchi va ikkinchi uyg'onish davrining tarixiy shart-sharoiti bilan qadimgi milliy liboslarimizni zamonaviy uslublarda loyihalash bo'yicha izlanishlar va tahlillari keltirilgan. Oldingi davrlardagi milliy liboslarimizni, naqshlarimizni, kashtalarimizni hozirgi zamon modasiga jisplashtirishimiz muhimdir. Liboslarimizdagi ma'naviyatimiz, milliyligimiz va urf odatlarimizni saqlab qolgan holda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib bichish va eng muhimi uni xalqimiz o'rtasida keng jalb qilishda tadqiqotlar olib borishdan iboratdir. Bu - tarix, bugun va kelajakni birlashtiruvchi hayotbahsh g'oya bo'lgani uchun ham uchinchi renessans masalasi milliy g'oya sifatida ko'tarildi.

Kalit so'zlar: renessans, gazlama, kashta, kiyim- kechak, chopon, bolalar kiyimi, konstruksiya, dastur.

В статье представлены исследования и анализ проектирования наших старинных национальных костюмов в современных стилях с учетом исторических условий первого и второго периодов ренессанса. Важно адаптировать наши национальные костюмы, узоры и вышивку прошлых эпох к современной моде. Она заключается в проведении исследований по сохранению нашей духовности, национальности и обычая в нашей одежде, использовании современных информационных технологий, а самое главное, в широкой пропаганде этого среди нашего народа. Вопрос третьего ренессанса был поднят как национальная идея, поскольку это жизненно важная идея, объединяющая историю, настоящее и будущее.

Ключевые слова: ренессанс, ткань, вышивка, одежда, плащ, детская одежда, конструкция, программа.

The article presents research and analysis of the design of our ancient national costumes in modern styles, taking into account the historical conditions of the first and second periods of the Renaissance. It is important to adapt our national costumes, patterns and embroidery of past eras to modern fashion. It consists of conducting research on the preservation of our spirituality, nationality and customs in our clothing, the use of modern information technologies, and most importantly, in the wide propaganda of this among our people. The issue of the Third Renaissance was raised as a national idea, since it is a vital idea that unites history, present and future.

Keywords: renaissance, fabric, embroidery, clothing, cloak, children's clothing, design, program.

Kirish

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 dekabrda qabul qilingan - 2017-2019 yillarda to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ-2687-sonli Qarori muhim omil bo'lmoqda. Ushbu Farmon va Qarorlarning maqsadi iqtisodiyotdagि

tarkibiy o'zgartirishlarni davom ettirish, to'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini modernizatsiyalash, diversifikatsiyalash va jadal rivojlantirishni ta'minlash, paxta tolasi va ipak xom ashyosini chuqr qayta ishslash, xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish yo'li bilan raqobatbardoshli, tashqi bozorlarda talab qilinadigan tayyor,

eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlari va turlarini kengaytirish va bu bo‘yicha ishlab chiqaruvchilarga bir qator imtiyozlar berish ko‘zda tutilgan [1].

To‘qimachilik sanoati O‘zbekiston sanoatining eng rivojlangan va yuqori rentabelli tarmoqlaridan hisoblanadi. Tarmoq korxonalarida yigirilgan ip, kalava, xom va tayyor matolar, trikotaj va tikuvchilik korxonalarida - kiyim-kechak va maishiy buyumlar ishlab chiqarilmoqda. O‘zbekiston uchun iqtisodiyotning mazkur sohasini rivojlantirishning muhimligi, birinchi navbatda, mahalliy xom ashyo (paxta, shoyi, jun) bazasining mavjudligi, shuningdek, to‘qimachilik sanoatining yuqori mehnat sig‘imliligi bilan bog‘liq. Bu esa, bandlik va aholining turmush darajasini oshirish kabi muammolar yechimini topish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Jahan bozorida tabiiy, sifatli mahsulotlarga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Shu bois mahsulotlarning sifat ko‘rsatkichlarini izchil nazorat qilib borish ularni eksport qilishda muhim o‘rin tutadi.

Yurtimizda, yangi O‘zbekistoni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilayapti. Yurtboshimiz “Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi uyg‘onish davri, ya’ni uchinchi renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekamiz, avvalo, uchinchi renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak” deb ta’kidlab o‘tdilar [2].

Yurtboshimiz fikrlaridan kelib chiqib birinchi va ikkinchi uyg‘onish davrining tarixiy shart-sharoiti bilan qadimgi milliy liboslarimizni zamonaviy uslublarda loyihalash bo‘yicha izlanishlar tahlillari ushbu maqolada keltirilgan.

Asosiy qism

Kiyimning yuzaga kelishi to‘g‘risida har xil taxminlar va qazilma ishlaridan kelib chiqqan holda xulosalar mavjud. Kiyim insonning ilk rivojlanish davridan boshlab doimo inson bilan birga rivojlanib


keldi. Kiyimning dastlabki ko‘rinishlari ibtidoiy davr odamlarining qabila bo‘lib yashagan davrida paydo bo‘lgan. Kiyim ilk bor o‘n ikki oyi ikki fasldan, ayniqsa qish fasli qattiq bo‘ladigan davlatlarda yuzaga kelgan. Chunki qishning qattiq kelishi kiyimga bo‘lgan talabni yuzaga keltirgan. Shuning natijasida terilardan yelkani yopib to‘rvuchi yoping‘ichlar va beldan pastki qismini yopib turuvchi buyumlar paydo bo‘lgan. Yoz kunlari esa issiqlidan saqlanish maqsadida o‘t -o‘lanlardan foydalanishgan. Kiyim keyinchalik issiq va sovuq iqlimli davlatlarga tarqalgan.

Yevropada XV-XVII asrlar orasida yuzaga kelgan birinchi renessans davri yurtimizda undan bir necha yuz yil avval, ya’ni IX-XI asrlarda ro‘y bergen. Ushbu ulkan yuksalishning sodir bo‘lishini o‘z tarixiy sabablari bor, albatta. Chunki, mazkur davrda davlat taraqqiyoti uchun juda muhim bo‘lgan yangi islohotlar va qonunlar joriy qilingan. Bundan tashqari O‘zbekistonda yashayotgan xalqlarning milliy liboslari sharqning barcha xalqlari uchun umumiyl bo‘lgan xususiyatlarni va boshqa mamlakatlarning kiyim-kechaklarida topilmagan noyob xususiyatlarni juda ham uyg‘unlashtiradi.

Kiyimning shaklida va harakterida insoniyat jamiyatining rivojlanishining milliy va badiiy madaniyati aks etib turadi. Shuning uchun kiyim kishi tanasini tashqi muhit tasiridan himoya qilishi bilan birga axborot berish vazifasini ham bajaradi. Kiyim-kechak assortimenti ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, iqlim, tashqi muhit, xalq an’analari, xalqning turmush tarzi, yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar, sportga ommaviy qiziqish, shuningdek tikuvchilik sanoatining xomashyo bazasida yangi turdagil materiallarni paydo bo‘lishi natijasida yangilanadi. Yangi turdagil materiallarga tabiiy va sun’iy tolalarning aralashmasidan tayyorlangan materiallar, trikotajdan va to‘quv bo‘lmagan materiallar, kimyoviy tolalar va ularning aralashmalaridan tayyorlangan matolar, sun’iy mo‘yna, baxmal kabi matolar, sun’iy va tabiiy charm, yopishtiruvchi termoplastik material, o‘rgimchak to‘ri, yopishtiruvchi iplar, yopishtiruvchi

qoplamali materiallar shular jumlasidandir [3].

Qadimgi Misrda, Qadimgi Yunonistonda, Qadimgi Rimda qullarning kiyimi faqat yalang‘ochlikni yashirib (1-rasm), juda bo‘lsa yog‘ingarchilikdan saqlagan. Qullarning kiyimi eng dag‘al gazlamalardan bo‘lgan, poyafzal esa ularga ko‘pincha berilmagan. O’sha vaqtdagi erkin kishilar o‘z martabasiga qat’iy mos



1-rasm. Teri yoki dag‘al polotno lo‘ngi – qullarning kiyimi (Qadimgi Misr)

Vaqt o‘tishi bilan, milliy liboslar keskin o‘zgarganligini, ammo eng zamonaviy variantlardan biri sharqning eng qadimiy an‘analarini va tarixiy aloqani muvaffaqiyatli saqlab qoladi, uning ildizlari eng qadim zamonlarga taqaladi.

Ikkinchи renessans nafaqat mintaqamizda, balki juda katta jo‘g‘rofiy hududlarda siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirgan. Ikkinchи renessans davri “Islom madaniyatining

kiyinari edi. Cheklash va man etishlar gazlama sifatiga va rangiga, pardoz va bezaklar miqdoriga, kiyimlar insonni qanday martaba, qay daraja hokimlik ramzi ekaniga taalluqli bo‘lardi. Misr fir‘avnleri va ularning yaqin zodagonlari oddiy ipdan va zig‘ir toladan to‘qilgan shaffof xarir gazlamadan (2-rasm). Kog‘inlar esa qoplon terisidan kiyinishar edi.



2-rasm. Fir‘avnnning kiyimi

oltin asri” deb atalishi bilan birga, fanlarining rivojlanishi bilan yurtimizda ikkinchi uyg‘onish, ya’ni ikkinchi renessans davrini boshlab berdi. Bu davrda kiyim kechaklar xalq tarixi bilan uzviy bog‘liqligi bilan ajralib to‘radi. Ularda biron bir elat tarixiga borib taqaladigan an‘analar, ijtimoiy munosabatlар, ma‘rifiy, diniy va estetik shakllarning ayrim unsurlari ifodalananadi (3-rasm).



3-rasm. Ikkinchı renessans davrida milliy liboslarımız

Qadim zamonlarda erkaklar ko‘ylagi asosan bir xil tusdagi oq matodan tikilib, kosib dastgohida to‘qilgan. Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm vohalarida ham yoqasi yotiqlar ko‘ylaklarni kiyishgan. Chavandozlar, ovchilar esa namat-kigizdan, jun mo‘ynadan, oshlangan teridan tikiladigan cholvor kiyishgan.

Yigitlar kiyadigan choponlar qo‘lda yoki fabrikada to‘qilgan yo‘l-yo‘l nimshoyi beqasamdan tikilib, beqasam to‘n deb atalgan. Eng dastlabki to‘n sunnat keyin esa nikoh to‘yiga atab tikilgan. Marhumning yaqin qarindoshlari bo‘lmish yigit ta’ziya-motam kunlari xuddi shu to‘n ustidan belbog‘ bog‘lab yurgan. XIX-XX asr boshlarida Buxoro xonlari va amirlari aksariyat marosimlarda zardo‘zi chopon kiyishgan. Eng mohir zardo‘zi ustalar ularning saroylarida mehnat qilgan.

Erkaklar, ayollar, bolalar, jumladan, o‘g‘il va qiz bolalar, chollar va kampirlar o‘zlariga xos bosh kiyim kiygan. Do‘ppilar uchi cho‘qqi, konus shaklida, yarim qubba, tagi yassi dumaloq, to‘rburchak-chorsи shaklida tikilib, ipak, zarrin ip, kumush iplar bilan kashta tikib bezatilgan. Vohamizda piltado‘zi do‘ppilar, Toshkentda esa gul (kashta) tikilgan do‘ppilar bilan bir qatorda baxmal do‘ppilar ham kiyilgan.

Ayollarning an'anaviy kiyim boshlari esa ko‘ylak, lozim, chopon, mursak, to‘n, peshmat, kamzul, nimcha. Paranji-chachvon shaharlik ayollarning majburiy ustki kiyimi hisoblanib, ko‘chaga chiqqan paytlarida boshga yopinib

yurganlar, boshlarida hilma-xil ro‘mollar, rang-barang do‘ppilar kiyilgan.

Bolalar kiyimlari nisbatan yangi ixtiro XIX asrga qadar kiyimlarning ibtidoiy boshlanishidan boshlab, bolalar kattalar kostyumlarining miniatyura ko‘rinishlarini kiyishdi. Bolalar kiyimlarda ko‘pincha etakchali iplar tikilgan, bu u bolalarga zarar yetkazmaslik uchun bog‘lab qo‘yish mumkin bo‘lgan, ammo kostyuming o‘zi hali ham kichik nusxada edi. 1800-yillarning boshlarida ham kattalar, ham bolalar uchun modalar, vazni jihatidan yengilroq va cheklovlardan ozod bo‘ldi.

Tikuv mashinasasi oila uchun kiyim tikishda og‘irlikni yengillashtirdi va fuqarolar urushi davrida bolalar kiyimlari uchun naqshlarning ko‘plab turlari mavjud edi. Fuqarolar urushining o‘zi bolalar kiyimlarini o‘zgartirdi, chunki askarlar uchun standart o‘lchamdagи kiyimlar tikilgan. Ko‘p o‘tmay, barcha kiyimlar kattalashdi va bolalar uchun uslublar o‘lchamlari tufayli farq qila boshladи. Tashish usullari turli xil va yangi kiyim turlarini taqozo etdi. Sport kiyimlari poezdlarda sayyohat qilishni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan va qizlar uchun maxsus kostyumlar va o‘g‘il bolalar uchun paltolar sayyohat uchun maxsus tayyorlangan. Asr o‘rtalarida velosiped va bolalar aravachasi mashhur bo‘lib, bolalarga minishda kiyadigan kiyimlar yaratilgan [4].

Davlatimiz rahbari nutqidagi “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik


vazifa sifatida oldimizga qo'yib, uni milliy g'oya darajasiga ko'tarmoqdamiz" degan so'zlari yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli tub islohotlardan ko'zlangan ulug' maqsadlarni ifoda etadi. "Biz maktabgacha ta'lim va mакtab ta'limi, olyi va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarini bo'lg'usi renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz. Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyoililarimizni esa yangi uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz. Men ishonaman – hurmatli ota-onalar bu tashabbusni albatta qo'llab-quvvatlab, yangi renessansning beshinchi halqasi, beshinchi ustuni bo'ladilar va bu ma'naviy-ma'rifiy hayotimizdagi eng mustahkam ustun bo'ladi, desam, o'ylaymanki, sizlar to'la qo'llab-quvvatlaysizlar" degan e'tirofi esa, "davlat-ta'lim-o'quvchi va ota-onsa" halqalarini qat'iy bir tizimga mustahkamladi va ulug' maqsadga erishishning ishonchli yo'lini ko'rsatib berdi. Bu yo'lni biz talabalar ham qullab quvvatlashimiz va tikish va bichishni yo'nalihsida yangi davrdagi bosqichlari buyicha o'z fikrlarimizni sizlar bilan muhokama qilmoqdamiz [5].

Har ikkala uyg'onish davrida ham eng muhim jihat – davlatning, davlat rahbarining yuksak e'tibori bo'lib kelgan. Shu sababli milliyligimiz, manaviyatimiz va urf odatlarimiz asrlar davomida saqlanib kelmoqda. Erkaklar kiyim-kechaklari bichimining davrlar mobaynida o'zgarmay kelayotganligi ularning mintaqalarga qarab farqlanishi va xususiyatlari esa matosining rangi bilan belgilanadi.

Prezidentimiz tilga olgan uchinchi renessans g'oyasi ham davlatning, ham yoshlarning, ham ota-onalar va ustozlarning orzu istaklarini birlashtiradi. Muhimi, har bir davrda qilingan ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilish imkonini beradi. Har qanday ota-onsa o'z farzandining iste'dodi barq urishini, el-yurtga xizmat qiladigan yetuk inson bo'lib ulg'ayishini xohlaydi. Ayni shu bilan birga insonlarni ko'runga ko'rka qushuvchi kiyimlarimizni va milliy liboslarimizni yo'qolib ketishini oldini olish uchun ularni hozirgi zamon modalariiga mos bichish zarurdir. Oldingi davlardagi milliy liboslarimizni, naqshlarimizni, kashtalarimizni hozirgi zamon modasiga jisplashtirishimiz muhimdir. Bu - tarix, bugun va kelajakni birlashtiruvchi hayotbaxsh g'oya bo'lgani uchun ham davlat rahbari uchinchi renessans masalasini milliy g'oya sifatida ko'tardilar.

Avvalo, ilm-fanni rivojlantirish, innovatsiyalarni iqtisodimiz va ijtimoiy hayotga joriy etish uchun normativ-huquqiy baza yaratildi. Yurtimiz tarixida ilk bor "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida hamda «Innovatsion faoliyat to'g'risida»gi Qonunlar Prezidentimiz tomonidan imzolandi. Mazkur sohalarni tartibga soluvchi qonun osti hujjatlari tayyorlandi. Ushbu ma'lumotlarni keltirishimdan asosiy maqsad endilikda bir har bir kiyimni IT texnologiyalaridan foydalangan holda yaratishimiz va uni reklama qilishimiz zarurdir [6].

Har xil yoshdagagi bolalar kiyimini konstruksiyasini hisoblash va bichuv detallarni avtomatik loyihalash dasturini yaratish (4-rasm).



4-rasm. Uchinchi Renessans davrida har bir kiyimning bichilishi

dasturda zamon talablariga mos keladigan o‘g‘il bolalar kiyimlarini loyihalash texnologiyalarini o‘rganish;

- har hil yoshdagi bolalar kiyimini loyihalashda yoshiga qarab boshlang‘ich parametrlarni kirkizish;

- konstruksiyadagi hisob ishlarini bajarish dasturlarini yaratish;

- kiyim bichimlarini avtomatik tayyorlash dasturini yaratish;

Dasturning funksional imkoniyatlari:

- bolalar qiyimini konstruksiyasini ishlab chiqishda boshlang‘ich parametrlarni kirkizgan holda avtomatik na’munalar olish;

- har hil yoshdagi o‘g‘il bolalar ko‘ylaklarini bichishning dasturi ishlab chiqiladi;

- o‘g‘il bolalar kiyimini konstruksiyanı hisoblash ishlarini amalga oshirishning dasturi yaratiladi;

Bu esa turli yoshdagi o‘g‘il bolalar ko‘ylagini avtomatik bichimini olish imkonini beradi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytgandi oldimizda turgan vazifalar kiyimlarni tikish va bichishda har bir davr tahlillarini olib borib liboslarimizdagи ma’naviyatimiz, milliyligimiz va urf odalimarimizni saqlab qolgan holda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda bichish va eng muhimi uni xalqimiz o‘rtasida keng jalb qilishda tadqiqotlar olib borishdan iboratdir.

Buning uchun ilm-fan sohasi va ilmiy-tadqiqot ishlarini hajmini kengaytirish va diversifikatsiyalashning

maqsadli parametrlariga erishish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. Samarali institutsional muhit va zamonaviy infratuzilmani yaratish, ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyot tarmoqlari talablariga moslashtirish, tijoratlashtirish ko‘lamini kengaytirish, ilm-fan va ilmiy faoliyatni rivojlantirishda tizimli yondashuv tatbiq etish choralar ko‘rismiz lozimdir.

Mana shu maqsadlar va belgilangan vazifalar yurtimizda Uchinchi Renessans davrining boshlanishiga zamin yaratishi kutilmoqda. Davlatimiz rahbari e’tirof etganidek, xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sish urgan hozirgi zamonda yangi O‘zbekiston yangidan-yangi yuksak marralarga erishishiga, insoniyat baxtsaodati, farovonligi va ravnaqi uchun o‘rnak bo‘lishiga shubha yo‘q.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21-dekabrdagi - 2017-2019 yillarda “to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi PQ-2687-son Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mustaqillikning yigirma to‘qqiz yilligiga bag‘ishlangan “O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor” yaratilayotgani haqidagi nutqidan.

3. G‘ofurova S.S., G‘ofurova A.X. “Tikuv buyumlari texnologiyasi” o‘quv



qo'llanma "Lesson press" nashriyoti 2020 yil. 172 b.

4. Liu, X., Duan, S., Hu, Y. Study on the Attention Degree of Consumer Endowments to Children's Clothing // Advances in Intelligent Systems and Computing Volume 1304, 2021, Pages 237-248

5. Shumkarova Sh.P., Rajapova M.N. "Tikuv buyumlarini konstruksiyalash"

o'quv qo'llanma "Lesson press" nashriyoti 2020 yil. 144 b.

6. O'zbekiston Respublikasi adliya Vazirligi xuzuridagi intellektual mult agentligining Sanoat namunalari bo'limining EHM dasturlari uchun ruyxatdan o'tgan DGU 20202350 mualliflar (Abbazov I., Matchanova N., Baratova K., Mamarasulov B.)